

GAPDA SINTAKTIK MUNOSABATLARNING ZANJIRLI TABIATI VA ULARNING IFODALANISHI

Qosimov Dilshod Normurod o'g'li

Turon universiteti magistri

Annotatsiya. *Mazkur tadqiqotda gap tarkibidagi hokim va tobe qismlarning sintaktik vaziyati hamda ularning o'zaro munosabatlari tahlil qilinadi. Xususan, tobe qismning vaziyati aniq bo'lishi, hokim qismning vaziyati esa nutq zanjiri davomida bosqichma-bosqich aniqlanishi ilmiy asosda yoritiladi. Tadqiqotda so'z shakllarining o'zaro bog'lanish mexanizmi, ularning sintaktik pozitsiyalari hamda argument-struktura munosabatlari ko'rib chiqiladi. Shuningdek, kesimga nisbatan bir nechta birliklarning kengaygan holda yagona sintaktik pozitsiyada kelishi holatlari izohlanadi. Bunda kelishik shakllari orqali yuzaga keladigan sintaktik bog'lanishlar, xususan qaratqich va tushum kelishiklarining funksional roli alohida tahlil qilinadi. Natijada, gap qurilishida sintaktik munosabatlarning dinamik va zanjirli xarakterga ega ekanligi asoslab beriladi.*

Kalit so'zlar: *hokim va tobe qism, sintaktik pozitsiya, gap tuzilishi, argument strukturalari, nutq zanjiri, so'z shakli, sintaktik bog'lanish, kelishik kategoriyasi, qaratqich kelishigi, tushum kelishigi, kesim, kengaytiruvchilar.*

Annotation. *This study analyzes the syntactic positions of head and dependent components in sentence structure and their interrelations. In particular, it highlights that the position of the dependent element is clearly defined, whereas the position of the head element becomes progressively defined within the chain of speech. The research examines the mechanisms of relationships between word forms, their syntactic positions, and argument structure relations. It also explains cases where multiple elements, functioning as arguments of the predicate, expand with their own dependents and occupy a single syntactic position relative to the predicate. Special attention is given to syntactic relations expressed through case forms, particularly the functional roles of the genitive and accusative cases. As a result, the study demonstrates the dynamic and chain-like nature of syntactic relations in sentence construction.*

Key words: *head and dependent elements, syntactic position, sentence structure, argument structure, speech chain, word form, syntactic relations, case category, genitive case, accusative case, predicate, expansion.*

Darslikdagi “Ega, asosan, kim? nima? so‘roqlariga javob bo‘lib keladi. Ega doimo bosh kelishik shaklida bo‘ladi” ta’rifi “Bu kitobdan menda ham bor” tipidagi gaplarda “kitobdan”ni ega deb ajratishga, tilshunoslikda kesimning grammatik shakli xususida yetakchilik qiladigan qarashlar poetik nutqda uchrovchi Man saningman, san manim (Iqbol Mirzo), Aytgum, bu kun, u manim, manim (A.Oripov), Falak amri: men – sening, sening (“Yevgeniy Onegin”dan) tipidagi gaplarda saningman, manim, manim, sening so‘zlarini

kesim deb qarashga to'sqinlik qiladi. Shuning uchun ham gapni bo'laklarga ajratishning yangi-yangi tamoyillari vujudga kelmoqda¹. Ana shunday tamoyillardan biri sintaktik pozitsiya tamoyilidir. Dissertatsiyaning ushbu bobida sintaktik pozitsiya termini va uning gap bo'laklarini ajratishda tutgan o'rni xususida so'z boradi.

Tilshunoslikda, xususan, o'zbek tilshunosligida ham mavjud bo'lgan sintaktik nazariyalarda gap bo'laklarini tasniflashga yondashuv turlicha bo'lgani kuzatiladi. Bu haqida avvalgi bo'limlarda gapirildi. Yaqinga qadar mavjud darslik va qo'llanmalarda gap bo'laklari bosh bo'laklar (ega, kesim) va ikkinchi darajali bo'laklar (aniqlovchi, to'ldiruvchi, hol) sifatida o'rganilib², tilshunosligimizda gap bo'laklarining ega – kesim – to'ldiruvchi – aniqlovchi – hol tartibi hamda "Ega o'z sostavidagi bo'laklarga hokim (shu sostavning bosh elementi) bo'lganidek, kesim ustidan ham hokimdir. Kesim egaga nisbatan tobe, o'z sostavidagi bo'laklarga nisbatan hokimdir"³ degan nazariya yetakchilik qilib keldi.

So'nggi tadqiqotlarda gapni bo'laklarga ajratishning yangi-yangi tamoyillari ilgari surilmoqda. "Ega va kesimni asosiy, qolgan bo'laklarni esa fakultativ (ikkinchi darajali) bo'lak deb hisoblash gapning struktur sxemasini va struktur tiplarini belgilashda asosiy mezon rolini o'ynadi. Gap strukturasi bunday qarash uning tarkibiy qismlari bosh va ikkinchi darajali bo'laklarga bo'linishini taqozo etdi. Gapning struktur sxemasini tashkil etuvchi predikativ minimum ifodalovchi ega va kesim shu gapning konstuyentlari sifatida bosh bo'laklar; ega yoki kesimga tobe bog'lanib, ularni kengaytirib kelgan bo'laklar ikkinchi darajali hisoblandi"⁴.

H.Usmonova so'nggi davrda sintaktik nazariyada ro'y bergan o'zgarishlar, sintaksisni pozitsion tomondan o'rganishning afzalliklari haqida fikr yuritarkan, shunday deydi: "Gap tarkibida mazmuniy va grammatik tayanch nuqta – predikativlik shaklidagi predikat, ya'ni kesim. Boshqa barcha bo'laklar kesimning "bo'sh o'rinlari"ni to'ldirib, unga nisbatan ma'lum vaziyatda keladi Kesimning "bo'sh o'rinlari"ni to'ldirib, uning talabi bilan ma'lum sintaktik vaziyatda (ega, to'ldiruvchi, hol) kelgan sintaktik birliklar moddiy jihatdan bir yoki bir necha morfologik shakllardan tashkil topadi. Bir necha morfologik shakllardan ifodalangan, kesimga nisbatan biror sintaktik vaziyatda kelgan sintaktik butunlik bir butun holda funksiyalashadi. Bunday sintaktik butunliklarda bir uzv boshqa uzvlarni birlashtiruvchi yetakchi vosita sanaladi. Ayni paytda, bu yetakchi qism o'zi ergashtirib kelgan boshqa qismlar bilan birgalikda bir butun holda kesimga nisbatan tobe vaziyatda keladi"⁵.

¹ Нурмонов А. Гап ҳақидаги синтактик назариялар. -Т., 1988. -99 б.; Маҳмудов Н., Нурмонов А. Ўзбек тилининг назарий грамматикаси. - Т.: Ўқитувчи, 1995. – Б. 60.

² Ўзбек тили грамматикаси. II-том. Синтаксис. Ғ.Абдурахмонов ва бошқ. Т.: Фан, 1976. 560 б. В-116-117

³ А.Ғуломов, М.Асқарова. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Синтаксис. Т.: Ўқитувчи, 1987. – 256 б. В-70-71

⁴ A.Nurmonov. S.Nurmonova. Uyushiq kesim va uyushiq gap haqida. Ilmiy xabarнома, ADU, №4 2013-yil; Нурмонов А. Гап ҳақидаги синтактик назариялар. -Т., 1988. -99 б. В-70-75

⁵ Ҳ.Усмонова. "Ўзбек тилидаги гап бўлақларининг позицион структураси" Филол.фан. док.дис.. автореф. Т., 2009. 39 б.

Demak, **sintaktik pozitsiya** deganda, gapning markaziy birligi bo'lgan kesimning bo'sh o'rinlarini tushunamiz. Uning bo'sh o'rinlarini to'ldiruvchi sintaktik birliklar kesimga nisbatan muayyan vazifani bajaradi. Masalan, Dalalarda qushlar sayramoqda gapida grammatik va mazmuniy markaz hisoblanuvchi sayramoqda kesimi subyekt, lokal hamda payt valentliklariga ega bo'lib, dastlabki ikki valentlik qushlar va dalalar sintaktik birliklari bilan to'ldirilmoqda. Subyekt valentligini to'ldiruvchi sintaktik birlik bosh kelishikdagi ot orqali ifodalanib, ega pozitsiyasida, lokal valentligini to'ldiruvchi dalalarda sintaktik birligi o'rin payt kelishigidagi ot orqali ifodalanib, hol pozitsiyasida kelmoqda. Demak, sintaktik pozitsiya kesimning bo'sh o'rinlariga (valentliklariga) qarab belgilanadi. Ayrim hollarda kesimga argument bo'lib kelgan bo'laklar ham o'zlarining bo'sh o'rinlariga ega bo'lib, ma'lum argumentlar bilan to'ldirilishi mumkin. Bunday vaqtda **sintaktik pozitsiya tushunchasi** faqat kesimga nisbatan emas, kesim argumentlarining argumentlariga nisbatan ham qo'llanadi. Ana shu holatlar e'tiborga olinsa, muayyan so'z shaklining boshqa so'z shakliga nisbatan holati uning vaziyati sanaladi. Ayni bir so'z shakli turli xil sintaktik vaziyatda turli gap bo'lagi vazifasida kelishi mumkin. Tobe aloqaga kirishayotgan so'z shakllari juftligida tobe qism hokim qism talab etgan vaziyatda keladi⁶.

Ko'rinadiki, tobe qismning vaziyati aniq, hokim qismning vaziyati esa noaniq bo'ladi. Uning qaysi vaziyatda kelayotganligi nutq zanjirining keyingi halqasida aniqlanadi. Masalan, gap qurilishi a, b, s va boshqa so'z shakllaridan tashkil topgan bo'lsin. Agar biz a so'z shaklining vaziyatini b so'z shakliga munosabatiga ko'ra belgilasak, b so'z shaklining vaziyatini a shakliga qarab belgilab bo'lmaydi⁷. Uning vaziyati s so'z shakli munosabatiga ko'ra, o'z navbatida, s so'z shaklining vaziyati esa d shakliga ko'ra belgilanadi. Yuqorida ta'kidlanganidek, ayrim hollarda kesimga argument bo'lib kelgan birliklar o'zlarining argumentlari bilan kengayib, u bilan birgalikda yahlit holda kesimga nisbatan bitta sintaktik pozitsiyada kelishi mumkin. Bu xaqda B.Mengliyev nutq jarayonida o'zaro munosabatga kirishuvchi bo'laklarning bog'lanishi xususida to'xtalib: «...qaratqich kelishigida «otni otga aniqlovchi vazifasida bog'lash», «tushum kelishigida otni fe'lga to'ldiruvchi vazifasida bog'lash» kabi xususiy ko'rinishlarda namoyon bo'ladi», deb ta'kidlaydi⁸.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, gap tarkibidagi hokim va tobe qismlarning sintaktik vaziyati o'zaro munosabatda va dinamik xarakterda namoyon bo'ladi. Tobe qismning vaziyati nisbatan aniq va bevosita bog'lanish asosida belgilansa, hokim qismning vaziyati nutq zanjiri davomida bosqichma-bosqich aniqlanadi. Bu esa gap tuzilishining chiziqli emas, balki zanjirli va tizimli xususiyatga ega ekanligini tasdiqlaydi.

Shuningdek, kesimga argument bo'lib kelgan birliklarning o'z navbatida kengayib, yagona sintaktik pozitsiyada qatnashishi gap strukturasi murakkabligini yanada oshiradi.

⁶ Нурмонов А. Гап ҳақидаги синтактик назариялар. –Т., 1988. -99 б;

⁷ Махмудов Н., Нурмонов А. Ўзбек тилининг назарий грамматикаси. –Т.: Ўқитувчи, 1995. – Б. 60.

⁸ Менглиев Б.Р. Морфологик воситаларнинг маъновий хусусиятлари ва синтактик имкониятлари: Филол. фанлари номзоди ...дисс.автор. –Т., 1996.-18 б.

Kelishik shakllari, xususan qaratqich va tushum kelishiklari orqali ifodalangan bog‘lanishlar esa sintaktik munosabatlarning muhim vositasi sifatida namoyon bo‘ladi.

Natijada, gap tarkibidagi birliklarning o‘zaro bog‘lanishini chuqur o‘rganish sintaktik tizimni yaxlit va mukammal tushunishga xizmat qiladi hamda o‘zbek tilshunosligida gap qurilishi masalalarini yanada izchil talqin qilish uchun muhim nazariy asos yaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. A.Nurmonov. S.Nurmonova. Uyushiq kesim va uyushiq gap haqida. Ilmiy xabarnoma, ADU, №4 2013-yil; Нурмонов А. Гап ҳақидаги синтактик назариялар. -Т., 1988. -99 б. В-70-75
2. А.Ғуломов, М.Асқарова. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Синтаксис. Т.: Ўқитувчи, 1987. – 256 б. В-70-71
3. Маҳмудов Н., Нурмонов А. Ўзбек тилининг назарий грамматикаси. –Т.: Ўқитувчи, 1995. – Б. 60.
4. Менглиев Б.Р. Морфологик воситаларнинг маъновий хусусиятлари ва синтактик имкониятлари: Филол. фанлари номзоди ...дисс.автореф.-Т., 1996.-18 б.
5. Нурмонов А. Гап ҳақидаги синтактик назариялар. -Т., 1988. -99 б.; Маҳмудов Н., Нурмонов А. Ўзбек тилининг назарий грамматикаси. - Т.: Ўқитувчи, 1995. – Б. 60.
6. Нурмонов А. Гап ҳақидаги синтактик назариялар. –Т., 1988. -99 б;
7. Ўзбек тили грамматикаси. II-том. Синтаксис. Ғ.Абдурахмонов ва бошқ. Т.: Фан, 1976. 560 б. В-116-117
8. Ҳ.Усмонова. “Ўзбек тилидаги гап бўлақларининг позицион структураси” Филол.фан. док. дис.. автореф. Т., 2009. 39 б.